



THE SOURCES OF GENIUS AND CREATIVE THINKING IN HUMANS: THE INTERACTION OF HEREDITY AND SPIRITUAL FACTORS

Golibjon Nabijonovich Fozilov

National University of Uzbekistan

Lecturer at the Department of Philosophy

E-mail: golibjonf1@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Genius, mind, knowledge, spirituality, mind, thinking, wisdom, disease, loneliness, outlook, aspiration, madness.

Received: 27.06.25

Accepted: 29.06.25

Published: 31.06.25

Abstract: Everyone would be a genius if they knew how to force themselves to think creatively. In this sense, we can call creativity a great riddle and at the same time a great happiness. It is possible that every person can reflect different aspects of creativity through his creative activity and have the opportunity to form new ideas related to it while improving. However, since creativity is relative to space and time, we can also see its stagnation and non-formation in a certain space.

INSONDAGI DAHOLIK VA IJODIY TAFAKKURNING MANBALARI: IRSIYAT VA MA'NAVIY OMILLAR O 'ZARO TA'SIRI

G'olibjon Nabijonovich Fozilov

O'zbekiston Milliy universiteti

"Falsafa" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: golibjonf1@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Daho, aql, bilim, ma'naviyat, zehn, tafakkur, donolik, kasallik, yolg'izlik, dunyoqarash, intiluvchan, telbalik.

Annotatsiya: Agar odam o'zini ijodiy fikrlashga majbur qilishning yo'lini bilganda hamma daho bo'lar edi. Ayni shu ma'noda, biz ijodni buyuk topishmoq va shu bilan birga buyuk baxt deyishimiz mumkin. Ehtimol har bir odam o'zining ijodiy faoliyati orqali ijodning turli qirralarini aks ettirishi va takomillashtirib borib biron-bir unga aloqador yangi g'oyalarni shakllantirish imkoniyatiga

ham ega bo'lishi mumkin. Biroq ijod makon va vaqtga nisbiy bog'langani uchun ham uning to'xtab qolish holatini va ma'lum bir makonda shakllanib qolmasligini ham ko'rishimiz mumkin.

ИСТОЧНИКИ ГЕНИАЛЬНОСТИ И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ЧЕЛОВЕКА: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАСЛЕДСТВЕННОСТИ И ДУХОВНЫХ ФАКТОРОВ

Голибжон Набижонович Фозилов

Национальный университет Узбекистана

Преподаватель кафедры философии

E-mail: golibjonf1@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гений, разум, знание, духовность, разум, мышление, мудрость, болезнь, одиночество, мировоззрение, устремление, безумие.

Аннотация: Каждый был бы гением, если бы знал, как заставит себя мыслить творчески. В этом смысле творчество можно назвать великой загадкой и в то же время большим счастьем. Не исключено, что каждый человек может отражать через свою творческую деятельность разные стороны творчества и имеет возможность формировать новые идеи, связанные с ней, совершенствуясь. Однако, поскольку творчество относительно пространства и времени, мы также можем видеть его застой и неопределенность в определенном пространстве.

Kirish. Sharq va G'arb ilmiy tafakkur taraqqiyotini keltirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, mazkur hududlardagi shakllangan g'oyalarning o'zaro bir-biriga ko'rsatgan ta'sirini Osiyosentrizm yoki Yevropasentrizm vakili ham mutloqo inkor eta olmaydi. Shu ma'noda, ijod dinamikasi umumbashariy xarakterga ega. Ijtimoiy ongda yangiliklarning yagona manbasi individual ongdir. Ijod odamlarning ongli faoliyatining ifodalanishi bo'lib, insonning shaxsiy borlig'i shaklini tashkil qiladi. Ijod insonning ob'ektiv va sub'ektiv ro'yolikni o'zgartiruvchi faoliyatidir. Shuning uchun ham A.M.Korshunov "Ijod bu sub'ektning ob'ekt bilan faol o'zaro harakatidir. Bu jarayonda sub'ekt maqsadga yo'naltirilgan holda atrof-olamni o'zgartirib, ob'ektiv qonuniyatlar talabiga ko'ra yangi, ijtimoiy ahamiyatdagi olamni yaratadi. Atrof-olamga ta'sir qilib, sub'ekt o'z-o'zini ham o'zgartiradi"[1], - deb yozadi. Bu fikri bilan faylasuf ijod amaliy faoliyat shakli sifatida namoyon bo'lishiga alohida urg'u beradi. Biroq, nazarimizda, ijodni ekzistensial faollik bilan nisbatlash, uni sub'ekt-ob'ektlilik shaklidan farqli bo'lgan fikriy harakatlar orqali amalga oshiriluvchi, eng istiqbolli qurilma hisoblanadi. Chunki ijodning chuqur talqini ma'noning yaratilishi bilan bog'liqdir, ya'ni ijod jarayoni qandaydir ideal borlik bilan bog'lanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugun – yigirma birinchi asrda yangi ochilayotgan kashfiyotlar sababli, xususan inson genomi oshkorlasha boshlagani tufayli yana avjiga chiqayotgan genetikaga oid bahslar o'tgan asrning yetmishinchi yillarida, Freyd, Nitsshe singari faylasuflar ommalashgan, kibernetika rivojlana boshlagan bir davrda ayniqsa hammaning fikru xayolini band etgan edi. O'shanda «Genetika» nomli she'rini batgan Abdulla Oripov: «Balki tanglayimni ko'tarib ketgan Darbadar bir oshiq va yo sarbador. Balki biror bobom shahanshoh o'tgan, balkim vujudimda darvish qoni bor», – deb yozgan, «Yiroq avlodlarga bizlardan nima hislat qolarkin?!» – degan xayollarga berilgan, avlodlar galma-gal kechib, bashar sayqal topib, «eng oliy, mukammal inson», «nigohini quyoshga qaadab turadigan nurday pok, ishqday bezavol»[2] go'dak dunyoga kelishidan umidlangandi va unga xitob etgandi.

Turg'unlik yillarining toriqarli kechmishlarida, yo'l yursa – yo'l, cho'ntakda – qo'l, og'izda til zerikkan zamonda, mute va pachoq odamlardan zorlangan Erkin Vohidov: «Yurtning seni menday farzandlari mo'l, Endi unga daholar kerak», – deb da'vat qilgandi.

Ozod Sharafiddinov uchun iste'dodli odamlar xuddi bir yombidek gap edi: «O'rtamiyona fikrlash oldinga bir qadam ham yurishga imkon bermaydi. O'rtamiyona fikrlash- bir joyda deysinib turish, degan gap. Men shuni aytardimki, o'ziga xos fikrlaydigan odamlar, qolipdan chiqib fikrlaydiganlar, yangi fikrlarni topadigan, bizga yoqsa-yoqmassa, masalaning mohiyatini gapiradigan, uni chuqur dalillaydigan odamlar – jamiyatning boyligi, mislsiz va betakror qudrati. Faqat shunaqa odamlar tufayli jamiyat siljiydi, rivojlanadi», - derdillar. Alalxusus, daholik nima? Daholarning tabiati qanday bo'ladi? Ijodkorlikning geni mavjudmi? Buyuk ijodkorlik – bu Yaratgan noyob insonlarga in'om oniy ilhom mevasimi yoki zahmatli mehnat natijasimi? Bu kabi savollar insoniyatni azaldan o'ylantirib keladi.

AQShlik ikki iqtisodchi olim Benjamin Jons va Bryus Vaynberg «daholik yoshi»ni aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Tadqiqotchilar 500 nafardan ziyod Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan va qariyb 300 ga yaqin XX asrda dunyo tan olgan ixtirochilar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishgan. Ma'lum bo'lishicha, 93 foiz holatlarda 26 yoshdan katta kishilar buyuk kashfiyot va ixtirolar qilgan. Olimlarning esa eng samarali faoliyat ko'rsatadigan davri 30-40 yoshlarga to'g'ri kelarkan. Tahlillar o'rtacha «daholik yoshi» fiziklarda 36, kimyogarlarda 39, fiziologlarda 41 yosh ekanini ko'rsatgan. Psixologlarning fikricha, vunderkindlar paydo bo'lishining bir nechta shartlari bor. Volfgang Mosart musiqachilar oilasida dunyoga kelgan, lekin uning iste'dodi ota-onasini hayratga solgan. U uch yoshida opasining fortepiano kitoblaridan chalishni o'rganib olgan va tez orada fortepiano chalish bo'yicha o'zidan besh yosh katta opasidan o'zib ketgan. Besh yoshida Volfgang xalqaro konsertlar bergan va musiqa bastalagan. U sakkiz yoshga to'lganida britaniyalik tabiatshunos Deyns Barrington kichkina Mosartni sinab ko'rgan: unga yaqindagina yozilgan beshta partiyali pesani bergan. Bolakay pesani endi ko'rib turgan bo'lsa-da, royal oldiga o'tirib

darhol uni chalishni boshlagan. Barrington bu haqda o'z kitobida shunday yozadi: "U bu partiturani ilgari ko'rmagandi, lekin simfoniyaning haqiqiy ustalardek bastakor fikriga mos tarzda mohirlik bilan ijro etdi"[3]. Bunday bolalarni odatda iste'dodli yoki Xudo bergan iqtidor sohiblari deb atashadi, lekin Mosart mo'jizaning o'zi edi. Ogayo shtati universiteti professori, psixolog Joanna Ratses aynan ana shunday bolalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Daholik – inson aqli, ruhi va vujudi ijodiy salohiyatining yuksak darajadagi namoyonidir. Insonni hayratga soladigan, avval g'ayritabiiy tuyuladigan va keyinchalik mumtoz asarlar – «shedevrlar» deb tan olinadigan daholikning ifodasidir. Daho inson hamzamonlaridan ko'ra samaraliroq va tezroq faoliyat yuritadi. Daholar o'z sifatlarini mudom yashirib kelganlar, ular oddiy kishilarning fisqu fasodlari va la'natlaridan yiroqda bo'lishni afzal ko'rganlar. Salvador Dali esa, aksincha, har bir asari, harakati, so'zlarida o'zining daholigini ko'z-ko'z qilishga, atayin ta'kidlashga intilgan. "Shunday kun keladiki, men o'zimning buyukligim bilan Nissheni ortda qoldiraman!"[4] – degan edi u. XIX asr oxiridan XX asrning o'rtalarigacha Nisshaga o'xshab yozishni havas qilmagan ijodkor, XX asrning o'rtalaridan esa Salvador Daliga o'xshab chizishga intilmagan musavvir kamdan-kam topiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrga kelib daxolik fenomeni ko'plab sotsiologik va fiziologik tadqiqotlarga asos bo'ldi. Daholikning aksariyat ko'rinishlari ilmiy va badiiy ijodda aks etdi. Bizning zamonamizda esa katta hajmdagi axborotni qabul qila olish, kuzatish va qayta ishlab chiqish daholikning belgisi sifatida qaralmoqda. Pedagogika va genetikadagi erishilgan taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan, ilm hali daholikning, ijodkorlikning sir-asrorlari tubiga yeta olgan emas. Bugun ayrim olimlar miyaning shunday bir qismini aniqlaganlarini aytmodalarki, agar uni ishdan chiqarilsa, daxoga aylanish mumkin ekan. Olimlar autizm va devonalikka muhtalo shaxslarni o'rganish oqibatida shunday xulosaga kelganlar. Daholikning devonalikka uyg'unligi borasida hadim zamonlardan beri tadqiqotchilar aytib kelganlar. 1988 yilda ekranlarga chiqqan «Yomg'ir odami» filmida Dastin Xofman bosh rolda o'ynagan qahramon telba bo'ladi va uning mislsiz matematik salohiyati mavjud edi. San-Fransiskodagi Kaliforniya universitetining ruhiy tadqiqotchisi Bryus Miller badiiy iste'dodga ega bo'lgan barcha mijozlarning miyasini skanerda o'tkazadi va aniqlaydiki, ularning barchasida bosh miyasining aynan bitta yeri – chap chakka qismi shikastlangan edi.

V.P. Efroimson o'zining «Daholikning sarzamini» asarida aqliy faollikning bioijtimoiy omillarini maxsus o'rgangan. Uning fikricha, daholik – aqliy faollikning o'ta yorqin namoyon bo'lishidir. Dahiyonalikning rivojlanishi va amalga oshishida ijtimoiy omillarning ahamiyatini ta'kidlagan holda, olim daho salohiyatining namoyon bo'lishida biologik omillarning ham ulkan ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Daholikning ro'yobga chiqa olishida to'rtta ijtimoiy omil ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, bolalik-o'smirlik davridanoq mustahkam maqsadga yo'nalganlik; ikkinchidan, individual qobiliyatlarga mos kasbni tanlash; uchinchidan, mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarning mavjudligi; to'rtinchidan, ijtimoiy buyurtmaning (ehtiyojning) mavjudligi. Darvoqe, axir, bu to'rt omil minglab-millionlab odamlarda bo'ladi, ular ham oldilariga maqsad qo'yadilar, ularning ham aksariyati qobiliyati bor kasbni tanlaydi, jamiyatda hamisha dohiyona yechimlarga, kashfiyotlarga ehtiyoj bo'ladi. Xo'sh, nega hamma ham daho bo'lib ketmaydi?! Nechun daholik hamisha yagona, butkul individual va betakror?! Bundan daholikka erishib bo'lmaydi, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Daholar bor va, nafaqat ilmu texnikada, balkim gumanitar, badiiy, Musiqiy, adabiy va hokazo sohalarda daholik namunalari ko'plab mavjud[5]. Insoniyat og'ir ziddiyatlar va yechimini kutayotgan zalvorli muammolar iskanjasida turgan bugungi kunda daholikni tatqitq etishdan va daholarning xizmatidan yuz o'girib bo'lmaydi. Musulmon faylasuflari ham bunga e'tibor qaratganlar va deganlarki: «Eng chiroyli gullar va shirin mevalar achigan go'ngdan unib chiqqanidek, el-yurt boshida og'ir muammolar, yechimsiz ziddiyatlar bor, qattol zamonlarda daholar tug'iladi».

Mosart kabi bolalar kamdan-kam tug'ilishadi. Besh yoki o'n millionta bolaga bitta ana shunday bola to'g'ri keladi. Faoliyati davomida Ratses 30 dan ortiq vunderkindlarni o'rgangan. U duch kelgan ilk vunderkind ikki yoshli edi. Go'dak haqida 1990 yili "People" jurnalida maqola chop etilgan. U cherkovda bir marta eshitgan musiqasini chala olgan. Ratses uning IQ — intellektual salohiyatini tekshirib ko'rgan va hech qanday g'ayrioddiylikka duch kelmagan. Kichkintoyning xotirasi g'ayritabiiy edi. Ko'pincha musiqa, matematika, san'at va shaxmatda professional qobiliyati o'n yoshgacha namoyon bo'lgan bolalar vunderkind deb ataladi. Vunderkindlar paydo bo'lishi haqida ko'plab tadqiqotchilar o'z taxminlarini bildirishgan: daholik o'rganish natijasimi yoki tug'mami? Ratses esa vunderkindlar paydo bo'lishi uchun quyidagi shartlar kerak deb hisoblaydi.

Kuchli xotira. "Intelligence" jurnalida chop etilgan sakkiz nafar qobiliyatli insonni o'rganish natijalari orqali ularning xotirasi 99 foizga ishlashi ma'lum bo'ldi.

- Autizmga duchor bo'lgan insonlarda uchraydigan mayda tafsilotlarga e'tibor qaratish xususiyati. Qobiliyatli insonlarda autizm belgilari uchramasa-da, ularning 50 foizdan ko'prog'ining oilasida autizm bilan og'rganlar bo'lgan.

- O'ta yuqori intellektual salohiyat. Ratses vunderkindlarning IQ ko'rsatkichi 100 va 147 orasida bo'lishini, o'rtacha 128 ni tashkil etishini aniqlagan.

Xulosa va takliflar. Vunderkind-larni oddiy insonlardan ajratib turadigan yana bir xususiyat ularning boshqalarga yordam berishga doimo tayyorliklaridir. Ularni kuzatarkan, Ratses

vunderkindlar boshqalarga ko'ngilchan munosabatda ekanliklarini aytadi: "Ular shunchaki yaxshi odamlar".

Xalqimizda «Qazisan-qartasan, o'z naslingga tortasan», «Ot aylanib qozig'ini topadi», «Onasini ko'rib, qizini ol», «Boyvuchchaning bolasi o'nidayoq bosh bo'lar, kambag'alning bolasi qirqida ham yosh bo'lar», «Olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi» singari irsiyat, nasliyat borasidagi yuzlab hikmatlar, rivoyatlar bor. Rivoyatlarning birida aytilishicha, podshoning xotini ketma-ket qiz tug'avgach, keyingi homiladorlikda u jahl bilan toqqa ketadi. Unga yana qiz tug'ilganini xabar qilshga qo'rqqan doya kampir, o'sha kuni tug'ilgan bir novvoyning o'g'il bolasini malikaning bolasiga almashtiradi, malika tuqqan qizaloqni novvoyning ayoliga berib yuboradi. Yillar o'tib «novvoyning qizi» chavandozlikka ishtiyoqmand bo'libdi, shoh saroyida o'sayotgan yigit bo'sh payt topdi deguncha, novvoyxonaga yo'l olar, tandirdagi olovga termulib o'tirar ekan... Har holda donishmandlik ham qonida bo'lgan xalqning dono asotirlari bejiz aytilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Коршунов А.М., Мантатов В.В. Диалектика социального познания. - М.: Политиздат 1988. - 383 с.
2. Vektor Alimazov. Daxolik. Tong yulduzi gazetasi 2007 yil nashri.
3. Burkhardt L. Daines Barrington//Verzeichnis eponymischer Pflanzennamen-Erweiterte Edition: [нем.] Berlin: Botanic Garden and Freie Universität Berlin, 2018. — S. 32.
4. Штерн, В. Умственная одаренность. Психологические методы испытания умственной одаренности в их применении к детям школьного возраста / В. Штерн. СПб.: Союз, 1997. - 129 с.
5. Сайлер, Т. Мыслит как гений / Т. Сайлер. Мн.: Попурри, 2005. 122 с.